



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b:
B.Bobojonov

«11» sentabr 2026 y.
№ 582

**“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Farg‘ona BXO binosida
kapital ta’mirlash ishlarini amalga oshirish uchun loyiha-
smeta hujjatlarini ishlab chiqish xizmati bo‘yicha**

TEXNIK TOPShIRIQ

Toshkent 2026-y.

T/r	Talablar ro'yxati	Talablar mazmuni.
1	Obyekt nomi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Farg‘ona BXO binosida kapital ta’mirlash ishlarini amalga oshirish uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish xizmati.
2	Manzil	Farg‘ona viloyati Farg‘ona shaxar Al Farg‘oniy ko‘chasi 47-uy.
3	Buyurtmachi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
4	Obyekt haqida ma'lumotlar	-Binoning qavatlar soni -4 ta -Umumiy maydoni-2220 kv/metr (Tom, fasad, binoning ichki qismida pardoqlash hamda obodonlashtirish ishlari kuzda tutilgan)
5	Bajariladigan ish va xizmatlar nomi	- Binoni kapital ta’mirlash uchun loyiha-smeta hujjatlarini (LSH) ishlab chiqish, vakolatli organlar bilan kelishish va qurilish davrida mualliflik nazoratini yuritish. - Obyektni joyiga chiqqan holda o‘rganish, nuqsonlar dalolatnomasini (defektniy akt) tuzish va buyurtmachi bilan kelishish; - Kapital ta’mirlash ishlari jarayonida aniqlanadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni inobatga olib, loyiha-smeta hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish; - Loyiha hujjatlarini barcha manfaatdor davlat idoralari va kommunal xizmatlar bilan kelishish; - Zarur hollarda qo‘shimcha tarzda dizayn loyihalarini ishlab chiqish.

6	Loyiha-smeta ishlarini bajarish uchun asos	“Biznesni rivojlantirish banki” ATBning 2026-yil 9-sentyabrdagi № IF-4680 sonli topshirig‘i.
7	Buyurtmachining manzili	Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Alisher Navoiy ko‘chasi, 18 A-uy, telefon: +99878 150-76-93
8	Ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar	Tanlovda qatnashish uchun ishtirokchi quyidagilarga ega bo‘lishi shart: - O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining tegishli litsenziya va ruxsatnomalari; - Shtab bo‘yicha xodimlar (mutaxassislar) soni kamida 6 kishidan iborat bo‘lishi, oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan hamda Kompetensiyani Rivojlantirish Instituti tomondan berilgan sertifikatga ega bo‘lishi.
9	Ishlarni bajarish muddati	Bo‘nak (avans) to‘lovi to‘langandan so‘ng 15 (o‘n besh) ish kuni.
10	To‘lov shartlari	- 30% bo‘nak (avans): Shartnoma imzolangandan keyin 10 (o‘n) bank ish kunida; - 60% to‘lov: Loyiha to‘liq topshirilib, bajarilgan ishlar dalolatnomasi imzolangandan so‘ng 5 (besh) bank ish kunida; - 10% yakuniy to‘lov: Obyektda qurilish-ta‘mirlash ishlari to‘liq yakunlanib, mualliflik nazorati jurnali yopilgandan so‘ng 5 (besh) bank ish kunida.
11	To‘lovni amalga oshirish valyutasi	O‘zbekiston milliy valyutasi so‘m
12	Moliyalashtirish manbai	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB o‘z mablag‘lari hisobidan
13	Atrof-muhit shartlari va talablari	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlarining amaldagi normativ hujjatlari talablariga muvofiq.
14	Yong‘inga qarshi tadbirlar	O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lgan shaharsozlik norma va qoidalari hamda yong‘in xavfsizligi talablariga muvofiq.
15	Ishtirokchilarning tashkilotchi bilan bog‘lanish uchun aloqa telefonlari	(94) 711-14-70 B.Marzaxmedov, (90) 972-36-66 Sh.Kadirov,
16	Taklifni baxolash uslubi	Eng kam narx taklifi mezonlari bo‘yicha baholanadi.

17	Boshqa talablar (bo‘limlarning tarkibi va mazmuni bo‘yicha berilgan loyiha hujjatlari ko‘rsatmalarining nusxalari soni va boshqalar).	LSh amaldagi ShNK 1.03.03-23 talablariga muvofiq tayyorlanadi. Tayyor loyiha Buyurtmachiga 2 (ikki) nusxada qog‘oz shaklida (muhrlangan holda) hamda PDF va DWG (AutoCAD) formatlarida elektron shaklda (flesh-diskda) taqdim etiladi.
----	--	--

kelishuvchilar: SH.Abdullayev, F.Mustafoev

<https://hujjat.brb.uz/?pin=eS98tP31&id=1ef4a8e9-494c-4809-bb28-17f50f0066ea>